



Mengboyev Shaxboz Juma o'gli

Denov tadbirkorlik va pedagogika institute "Tadbirkorlik va boshqaruv" fakulteti

mengboyevshaxboz75@gmail.com tel:+998700602218

Rashidov Aburayxon Ma'rufovich

tel:+998959204303

Annotatsiya: Mazkur maqolada yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning dolzarbligi, uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyati yoritiladi. Unda oila, ta'lim muassasalari hamda jamiyatning boshqa institutlari zimmasiga tushadigan mas'uliyat tahlil qilinadi. Shuningdek, milliy qadriyatlar, tarixiy meros va an'analarga tayanib, yoshlar qalbida Vatanga muhabbat, sadoqat va fuqarolik burchini shakllantirishning samarali usullari ko'rib chiqiladi. Maqolada vatanparvarlik tarbiyasini kuchaytirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ham berilgan.

Kalit so'zlar: Vatanparvarlik, yoshlar tarbiyasi, milliy qadriyatlar, ma'naviyat, fuqarolik burchi, ta'lim, oila, jamiyat

Annotation: This article discusses the relevance of educating the younger generation in the spirit of patriotism, as well as its role and importance in the development of society. It analyzes the responsibilities of family, educational institutions, and other social structures in shaping patriotic values among youth. Special attention is given to effective methods of fostering love for the homeland, loyalty, and civic responsibility based on national values, historical heritage, and traditions. The article also provides practical recommendations for strengthening patriotic education.

Keywords: Patriotism, youth education, national values, spirituality, civic duty, education, family, society.

Аннотация: В данной статье рассматривается актуальность воспитания молодого поколения в духе патриотизма, его роль и значение в развитии общества. Анализируется ответственность семьи, образовательных учреждений и других социальных институтов в формировании патриотических качеств у молодежи. Особое внимание уделяется эффективным методам воспитания любви к Родине, верности и гражданского долга на основе национальных ценностей, исторического наследия и традиций. Также приводятся практические рекомендации по усилению патриотического воспитания.

Ключевые слова: Патриотизм, воспитание молодежи, национальные ценности, духовность, гражданский долг, образование, семья, общество

KIRISH

Yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash har qanday jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Chunki bugungi yoshlar – ertangi kun egalari, mamlakat ravnaqi va barqarorligi aynan ularning bilimli, ma'naviy yetuk va Vatanga



sadoqatli bo'lib voyaga yetishiga bog'liq. Shu bois, yoshlar qalbida Vatanga muhabbat, milliy g'urur va mas'uliyat tuyg'ularini shakllantirish dolzarb vazifa sanaladi. Avvalo, vatanparvarlik tarbiyasi oiladan boshlanadi. Ota-onaning farzandiga bo'lgan e'tibori, ularning shaxsiy namunasi, milliy qadriyatlarga hurmati bolada dastlabki tushunchalarni shakllantiradi.

Farzand ota-onasining Vatanga, xalqiga bo'lgan munosabatini ko'rib ulg'ayadi va shu asosda o'z qarashlarini shakllantiradi. Shuningdek, ta'lim muassasalari ham bu jarayonda muhim rol o'ynaydi. Maktab va oliy ta'lim dargohlarida tarix, adabiyot, ma'naviyat darslari orqali yoshlar ongiga milliy o'zlik, tarixiy meros va ajdodlarimizning buyuk ishlari singdiriladi. Bu esa ularni o'z yurtiga nisbatan faxr va iftixor tuyg'usi bilan yashashga undaydi.

Zamonaviy davrda internet va ommaviy axborot vositalari ham yoshlar tarbiyasiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli, yoshlarni zararli axborotlardan himoya qilish, ularni to'g'ri yo'naltirish va foydali, ma'rifiy kontent bilan ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy tarmoqlarda vatanparvarlik ruhini targ'ib qiluvchi materiallarni ko'paytirish ham samarali natija beradi.

Bundan tashqari, yoshlarni turli madaniy-ma'rifiy tadbirlarga jalb etish, tarixiy obidalar, muzeylarga sayohatlar uyushtirish orqali ham ularda Vatanga bo'lgan mehrni kuchaytirish mumkin. Har bir yosh o'z yurtining tarixi, qadriyatlari va bugungi yutuqlarini chuqur anglab yetishi lozim. Ta'lim muassasalarida ham Vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish, tarbiyalash ta'limining asosiy mazmunini tashkil etmoqda.

Vatanparvarlik his-tuyg'ularimi shakllantirishda O'zbekistonning davlat ramzlari bayroq, gerb, madhuya, o'zbek tili, konstitutsiya va boshqa shu millatga, shu zaminga xos, mos bo'lgan tuyg'ular. fazilatlar o'tkazilayotgan madaniy-ma'rifiy faoliyatda o'z aksini topmoqda. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasi davlat darajasidagi masalalardan bo'lganligi bois, hunday maqsadlarga aniq rejalashtirilgan yo'l xaritalarida belgilangan vazifalardan iborat ishlarni hayotga tatbiq etish orqali amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Vatanparvarlik mavzusida juda ko'p olum-u ulamolarimizning ijod namunalari ya, bu haqdagi fikrlari bizgacha yetib kelgan. Amir Temur, Alisher Navoiy, Muhammad Zaxiriddin Bobur, Mirzo Ulug'bek va boshqa ajdodlarimizning ijod namunalari hozirgi kungacha, ya'ni bizning zamonamizda ham o'ziga xos o'rin egallagan bo'lib, yoshlar tarbiyasida ibrat, namuna sifatida qo'llanib kelinmoqda. Vatan tushunchasini har kim har xil ma'noda, o'zining tushunish darajasida talqin qiladi. Bu insonning tug'ilgan, kindik qoni to'kilgan joydir, bolalik, yoshlik davri o'tadigan, ta'lim-tarbiya topadigan, safar qilsa, mudom qo'msaydigan joydir.

Vatanni sevish, uning ravnaqi yo'lida xizmat qilish, uni yomon ko'zdan, qora kuchlardan himoya qilish, uning sha'nini himoya qilish bularning barchasi siz-u hizning oldimizda turgan mas'uliyatli vazifalardandir. Vatan tushunchasini, uni sevish, ardoqlash, himoya qilish tuyg'usi nafaqat insonda, balki hayvonot olamida ham kuzatish mumkin. Baluq suvga, hayvon o'zining iniga, hasharot uyasiga intiladi.

Tadqiqot usullari



Yoshlar tarbiyasi masalasi davlatimiz siyosatining hozirgi kunda eng muhim strategik vazifalaridandir. Yoshlar tarbiyasi tarbiyalash va ularning shaxsini har tomonlama kamol toptirish barcha umumta'lim maktablari zimmasiga yuklatilgan. Bu vazifalar o'quvchilarda barcha qobiliyatni o'sishiga, ijodiy intilishni vujudga keltirishga asosiy omil bo'lib hisoblanadi. Ilg'or g'oyalarni davrimizda roy berayotgan o'zgarishlarni, shuningdek, tarixiy mavzularni zamonaviy ruhda tushuntirish o'g'il va qizlarda g'oyaviy e'tiqodni ma'naviy dunyoqarashni tarbiyalash uchun boy manba bo'lib hisoblanadi. Shundagina yosh avlod ruhiga his-hayajonli ta'sir ko'rsatadigan ularda mardlik, jasurlik, tashabbuskorlikni tarbiyalaydigan mustahkam milliy tarbiya tizimi tarkib topadi. Vatanparvarlik tushunchasi ko'pincha harbiy faoliyatga nisbatan ishlatiladi. Bir jihatdan olib qaralganda, bu to'g'ri.

Ammo, biz bu tuyg'uni faqat harbiylarga nisbatan ishlatsak, biz vatanparvarlikning tor ma'noda qo'llagan bo'lamiz. Vatanparvarlikni barcha faoliyat doirasida ko'rish maqsadga muvofiqdir. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ishlar ko'lami kundan-kunga kengayib bormoqda. Davlatimiz rahbarining say - harakatlari, tashkibbuslari bilan yurtimiz hayotida misli ko'rilmagan darajadagi taraqqiyotning pog'onalarini ko'rib guvohi bo'lib turibmiz. Insonlarning tinchhotirjam yashashi, ulaming manfaatlarini himoya qilish, yurtimizni jahon arenasiga chiqarish, obro'yini ko'tarish, Prezidentimizning ta'birlari bilan aytganda, xalqni rozi qilish yo'lida qilinayotgan barcha ishlar, islohotlar jamiyatimiz taraqqiyotida muhim strategik masala sifatida qaralmoqda. O'zbekistonni yanada rivojlantirishning "harakatlar strategiyasi"da belgilangan beshta ustivor yo'nalishlari mazmunida ham shu yurtda yashayotgan xalqimizning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, ularning farovon turmush tarzini yaxshilash, yurtimizning jahon hamjamiyati oldida nufuzi, obro'yini oshirish va boshqa masalalar turibdi. Bunday ulug' ishlarni amalga oshirishda vatanparvarlik tuyg'usi kuchli insonlarning fidoiyligi muhim ahamiyat kasb etadi. "Vatan" - arabcha so'zdan olingan bo'lib, «Ona yurt» degan ma'noni anglatadi. Vatan insonning kindik qoni to'kilgan, avlod va ajdodlari tug'ilgan joyi, ijtimoiy muhiti va inson, uning hayoti va ma'naviy tushunchalarni anglatadi. Vatanparvarlik - deganda Vatanga sadoqat, unga xizmat qilish, yurt tinchligini asrash, Vatan ravnaqi uchun faol bo'lishga undaydigan ma'naviy axloqiy fazilatlar tushuniladi.

Ma'lumki, mamlakatimiz aholisining 60 foizidan ziyodini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlartashkiletadi. Bu esa 2016-yilning 14-sentyabrida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonunning muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, yoshlarda Vatanga daxldorlik hissini kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-fevraldagi 140-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash kontseptsiya"si qabul qilindi.

Kontseptsiyaning 2-bob 6-bandida yoshlarni milliy g'oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharafli va muqaddas burch ekanligini singdirish, qadimiy tariximiz va madaniyatimiz, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo'lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo'lish tuyg'usini shakllantirish, milliy armiyamizning



qudratini va salohiyatiga bo'lgan ishonchni kuchaytirish masalasi ko'rib chiqilgan. Yurtimizda 30-iyun - Yoshlar kuni deb e'lon qilindi. Prezidentimiz ushbu nutqida "O'zbekiston yoshlari davlat va jamiyat uchun rahbar kadrlarni tayyorlab beradigan o'ziga xos markaz bo'lishi, zamonaviy tilda aytadigan bo'lsak, yoshlar uchun "sotsial lift" vazifasini bajarish kerak. U bilimli, tashabbuskor va tashkilotchi, fidoyi yosh rahbarlarning kadrlar zaxirasini yaratishi kerak", deb alohida ta'kidladi. Prezidentimiz yurtimizda yoshlarga harbiy ta'lim-tarbiya beradigan kursantlar maktablariga "Temurbeklar maktabi" deb nom berish, turli soha va tarmoqlarda katta natijalarga erishib kelayotgan yigitlar uchun "Mard o'g'lonlar" nomli davlat mukofotini, yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda, o'qishda, mehnatda, jamoat ishlarida har tomonlama faol bo'lgan yigit-qizlarimizni taqdirlash maqsadida "Kelajak bunyodkori" medalini ta'sis etish taklifini ham bergan edilar. Ayniqsa, harbiy vatanparvarlik tarbiyasini mustahkamlash maqsadida yuqorida Prezidentimiz tomonidan taklif etilgan harbiy ta'lim-tarbiya beradigan joylarda "Temurbeklar maktabi" tashkil etildi, turli soha va tarmoqlarda yuqori natijalarga erishib kelayotgan yigitlar uchun "Mard o'g'lon" nomli davlat mukofoti va yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasida «Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish» deb nomlangan alohida band aks ettirildi va ijtimoiy sohani rivojlantirishning beshta ustuvor yonalishlaridan birining tarkibida o'z ifodasini topdi. Mamlakatimizning barcha viloyatlarida Prezidentimiz tashabbusi bilan harbiy-ma'muriy sektorlar tashkil etildi. Bunda joylardagi Mudofaa ishlari bo'limlari ijroiya hokimiyati vakillari bilan hamkorlikda yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda amaliy ishlar olib bormoqda. Hozirgi globallashuv jarayoni yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida shakllantirishning anaviy va zamonaviy usullaridan samarali foydalanishni taqozo etadi.

Manbalarni taqqoslash

O'zbekistonda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasi tarixiy taraqqiyot jarayonida turli bosqichlarni bosib o'tgan bo'lib, uning mazmuni va yondashuvlari davrlar kesimida sezilarli darajada o'zgarib borgan. Jadidchilik davrida bu masala asosan ma'rifiy-axloqiy nuqtai nazardan yoritilib, milliy uyg'onish g'oyalari bilan chambarchas bog'liq holda talqin etilgan. Abdulla Avloniy asarlarida vatanparvarlik tushunchasi shaxsning ma'naviy kamoloti, milliy ongning shakllanishi va jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy aloqada ko'rib chiqiladi⁵⁰. U yosh avlod tarbiyasini millat kelajagini belgilovchi asosiy omil sifatida baholab, vatanparvarlikni axloqiy tarbiya tizimining markaziy elementi darajasiga ko'targan. Bu davr manbalarida asosiy urg'u shaxsni ongli, fidoyi va millat manfaatlariga xizmat qiluvchi inson sifatida shakllantirishga qaratilgan.

Mustaqillikdan keyingi davrda esa mazkur yondashuv tubdan yangilanib, vatanparvarlik tushunchasi davlat mustaqilligi, milliy davlatchilik va tarixiy xotira bilan boyitildi. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov asarlarida bu masala strategik darajaga ko'tarilib, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida asoslab berildi⁵¹.

⁵⁰ Abdulla Avloniy. "Turkiy guliston yoxud axloq". – Toshkent, 1913.

⁵¹ Islom Karimov. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.



Uning qarashlarida vatanparvarlik nafaqat hissiy tuyg'u, balki ongli ravishda milliy manfaatlarni himoya qilish, mustaqillikni mustahkamlash va ajdodlar merosiga hurmat bilan qarash kabi ko'p qirrali tushuncha sifatida talqin etiladi. Shu jihatdan, bu davr manbalarida vatanparvarlik tarbiyasi milliy o'zlikni anglash va tarixiy merosni tiklash jarayonlari bilan bevosita bog'langan.

Hozirgi zamonaviy bosqichda esa mazkur masala yanada keng qamrovli va tizimli yondashuv asosida rivojlanmoqda. Shavkat Mirziyoyev rahbarligida olib borilayotgan islohotlar doirasida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasi nafaqat ma'naviy-ma'rifiy, balki ijtimoiy-iqtisodiy va innovatsion rivojlanish bilan uyg'un holda ko'rib chiqilmoqda⁵². Zamonaviy manbalarda vatanparvarlik tushunchasi globalizatsiya sharoitida milliy manfaatlarni himoya qila oladigan, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, raqobatbardosh shaxsni shakllantirish bilan bog'lanadi. Bu esa oldingi davrlarga nisbatan yondashuvning ancha kompleks va integratsiyalashgan tus olganini ko'rsatadi.

Muhokama va natijalar

Tahlil natijalariga ko'ra, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasi faqat ma'naviy tarbiya doirasida emas, balki jamiyat taraqqiyotining kompleks omili sifatida namoyon bo'lmoqda. Vatanparvarlikni shakllantirishda oila, ta'lim tizimi va davlat siyosati o'zaro uzviy bog'liq holda faoliyat yuritgandagina yuqori samaradorlikka erishish mumkin. Tarixiy tajriba va zamonaviy yondashuvlar o'rtasida muayyan izchillik mavjud bo'lib, ular bir-birini inkor etmaydi, aksincha, to'ldiradi. Jadidlar tomonidan ilgari surilgan ma'rifiy-axloqiy g'oyalar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan holda, zamonaviy ta'lim va tarbiya tizimiga moslashtirilgan. Shu bilan birga, mustaqillik davrida shakllangan yondashuvlar vatanparvarlikni davlat barqarorligi va milliy xavfsizlik bilan bevosita bog'laydi. Globallashuv sharoitida yoshlar ongiga ta'sir etuvchi omillar soni ortib bormoqda. Bu esa vatanparvarlik tarbiyasini an'anaviy usullar bilan cheklab qo'ymasdan, innovatsion va interaktiv metodlar asosida rivojlantirish zaruratini yuzaga keltiradi. Xususan, raqamli texnologiyalar, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanish yoshlar ongida mustahkam fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Vatanparvarlik tarbiyasining samaradorligi quyidagi omillarga bog'liq:

1. Milliy qadriyatlar va tarixiy merosning uzluksiz targ'ib etilishi.
2. Ta'lim jarayonida nazariya va amaliyot uyg'unligining ta'minlanishi.
3. Yoshlarni ijtimoiy faoliyatga keng jalb etish
4. Davlat va jamiyat tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlardan samarali foydalanish.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, vatanparvarlik bugungi kunda faqat ma'naviy qadriyat emas, balki yoshlarning ijtimoiy faolligi, fuqarolik pozitsiyasi va shaxsiy mas'uliyatini belgilovchi muhim omilga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan, uni shakllantirish jarayoni zamon talablariga mos ravishda yangilanib borishi zarur.

⁵² Shavkat Mirziyoyev. "Yangi O'zbekiston strategiyasi". – Toshkent, 2021.

Ayni paytda asosiy e'tibor yoshlarning mustaqil fikrlashi, ongli tanlov qila olishi va jamiyat hayotida faol ishtirok etishiga qaratilishi lozim. Chunki haqiqiy vatanparvarlik faqat hissiy munosabat bilan emas, balki aniq amaliy harakatlar, tashabbuskorlik va fidoyilik orqali namoyon bo'ladi.

Shu bois, mazkur yo'nalishda olib borilayotgan ishlarning samaradorligi yoshlarning ichki motivatsiyasini kuchaytirish, ularni real hayotiy jarayonlarga jalb etish va o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishiga imkon yaratish bilan bevosita bog'liqdir. Natijada jamiyatda nafaqat bilimli, balki ongli va mas'uliyatli avlod shakllanishi ta'minlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. SH.M. Mirziyoyev. "Konstitutsiya - erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanadataraqiy ettirishning mustahkam poydevoridir". Xalq so'zi. 247 (6741)-soni. -2017. 7dekabr.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisidagi nutqi". Xalq so'zi, 3-soni. - 2017-yil. 10-yanvar.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-fevral kuni tasdiqlangan "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash kontseptsiya" Vatanparvar gazetasining № 9 (2760) - soni, 2018-yil 2-mart.

4. SH.M. Mirziyoyev. "Jismoniy va ma'naviy yetuk yoshlar - ezgu maqsadlarimizga yetishda tayanchimiz va suyanchimizdir".